



Oliy ta'lim tizimida kredit modul tizimidan foydalanishning metodik asoslari

Ismoilova Iroda Erkinovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit modul tizmi, uning ta'lim tizimidagi afzalliklari yoritilgan. Kredit modul tizimida baholash, mustaqil ta'lim, o'quv jarayonlarini tashkil etish qadamlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul, talaba, mustaqil ta'lim, ta'lim, o'zlashtirish, baho.

Abstract: This article describes the credit module system and its advantages in the educational system. The credit module system describes the steps of evaluation, independent education, and organization of educational processes.

Key words: Credit module, student, independent education, education, mastering, assessment.

Kredit-modul tizimiga o'tishda bir qator muammoli jihatlariga e'tiborimizni qaratishimiz va bu tizimning afzallik jihatlariga urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, talabaning umumiy yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvalo talabaning mustaqil ishiga jiddiy e'tibor qaratiladi.



Kredit bu baho emas, balki ish miqdori hisoblanadi. Masalan, talaba 5 kreditlik fanni o'zlashtirgan bo'lsa, u 5 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya'ni u ushbu fanning ma'ruzalarida, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida qatnashgan, mustaqil ish topshiriqlarini bajargan hisoblanadi. Demak, bu fanni o'zlashtirgan talaba uni qanday bahoga o'zlashtirganidan qat'iy nazar u 5 kreditni qo'lga kiritadi.

Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini ochib berishda uni faqat "kredit" va "modul" atamaları orqali izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu atamalar uni ixcham nomlash uchun qo'llanilgan, xolos. Biz kredit-modul tizimining mohiyatini boshqacha usulda ochib bermoqchimiz. Ya'ni kredit-modul tizimining amaldagi ta'lim tizimidan farq qiluvchi jihatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari va elementlari qisman O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq qilingan. Shunday ekan, biz bu yerda kredit-modul tizimining faqat biz uchun yangi bo'lgan va amaldagi ta'lim tizimida mavjud bo'lmagan quyidagi 10 ta muammoli jihati va afzalliklari haqida fikr yuritamiz va zarur joylarda amalga oshirishning imkoni bo'lgan takliflarimizni keltirib o'tamiz.

1) Oliy ta'limning samaradorligi. Amaldagi ta'lim tizimida talabalar 1-kursdan boshlab yo'nalishlar va ular ichida tarmoqlar bo'yicha ajratilib ixtisoslik fanlarini o'qishni boshlashadi. Ya'ni, biz talabani hali abituriyentlik paytidayoq tanlovdan mahrum qilib ixtisoslikka biriktirib qo'yamiz. Kredit-modul tizimida esa eng avvalo talabaga tanlov imkoniyati beriladi. Tanlov fanlari semestrda semestrga oshib boradi. Ilg'or xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, bakalavriatni ikkita bosqichga ajratish orqali, 1-2 kurslarda tayanch fanlarni, 3-4 kurslarda esa tanlov asosida ixtisoslik fanlarini o'qitish mumkin. Demak, endilikda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun 4 yil emas, 2 yil yetarli bo'ladi. Bu esa oliy ta'limning ish unumini, samaradorligini 2 barobar oshiradi.

2) Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida maxsus fanlarni past kurslardan boshlab rejalashtirish, o'quv rejalardagi takrorlanadigan fanlarni har xil mutaxassisliklar



bo'yicha alohida o'qitish, auditoriya soatlari hajmini oshirish kabi holatlar mavjud. Bunday jarayonlar o'quv yuklamalarining keskin oshishiga sabab bo'ladi.

Biroq, biz bilamizki oliy o'quv yurtida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan yuklama hajmi oliy o'quv yurti bo'yicha umumiy o'quv yuklamasi hajmini talabalar soni asosida hisoblangan o'qituvchilar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Ya'ni, o'qituvchilar shtati o'quv yuklamalari asosida belgilanmaydi, balki talaba-o'qituvchi nisbati orqali belgilanadi. Oliy o'quv yurti bo'yicha umumiy o'qituvchilar soni aniqlangandan so'ng, ushbu asosda kafedralar shtatini shakllantiriladi, bunda esa kafedra o'quv yuklamalari hajmiga asoslaniladi. Kredit-modul tizimida talaba-o'qituvchi nisbati 16:1 va undan ham yuqori bo'lishi ko'zda tutiladi. Bunga auditoriya yuklamalarini kamaytirish, talabaning mustaqil ishi hajmini oshirish, darslarni katta auditoriyada tashkil qilish orqali erishish mumkin.

3) Talabaning mustaqil ish turlari. Ochig'ini tan olishimiz kerak, biz asosan "talabani qanday o'qitishimiz kerak?", degan muammo ustida bosh qotiramiz. Kredit-modul tizimida esa "talaba qanday o'qishi kerak?" degan muammo ko'ndalang qo'yiladi. Buni batafsil izohlab o'tamiz. Amaldagi ta'lim tizimida asosan auditoriyadagi darslarga ko'proq e'tibor beriladi, talabaning mustaqil ishiga esa jiddiy e'tibor qaratilmaydi, chunki bu faoliyat turi chuqur o'rganilmagan.

Kredit-modul tizimida esa fan moduli tarkibidagi "O'qituvchi Rahbarligidagi "Talabaning Mustaqil Ishi" va o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan "Mustaqil Ta'lim" muhim ahamiyat kasb etadi. ga keyslar, topshiriqlar, intervyu, krossvord, viktorina, esse, dayjest, taqdimot, hisob ishi, hisob-chizma ishi, kurs loyihasi, kurs ishi, ilmiy izlanishlar, fan to'garaklarida qatnashish va h.k.larni misol qilib keltirish mumkin. Ayniqsa, ushbu mustaqil ish turlarini masofaviy ta'lim platformalarida shakllantirish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu jarayonlarni ilg'or pedagoglarning tajribalarini ommalashtirish orqali jadallashtirish mumkin.



Gapning qisqasi, talabaning mustaqil ishlashini tashkil qilmas ekanmiz, har qanaqasiga urinmaylik, ishlarimizning samarasi bo'lmaydi.

4) O'quv rejalarining mosligi. Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bir xil yo'nalishdagi o'quv rejalarining turdosh OTM larda o'zaro farq qilishini kuzatish mumkin. Kredit-modul tizimi joriy qilinishi bilan esa o'quv rejalar Bolonya jarayoni ishtirokchi davlatlaridagi o'quv rejalariga to'liq mos bo'ladi va diplomlarning o'zaro tan olinishiga sharoit yaratiladi. Buning uchun birinchi navbatda o'quv rejalarimizning xorijiy o'quv rejalariga mosligini tahlil qilishimiz zarur.

5) Ta'lim natijalari. Kredit-modul tizimida ta'lim mazmuni "ta'lim natijalari" asosida rejalashtiriladi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, talabalarga o'qitiladigan fanlar va ularning mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyat turi uchun qanchalik zarurligidan kelib chiqib shakllantiriladi. Ochig'i, hozirgi kunda biz bu borada maqtana olmaymiz, chunki o'quv rejalariga ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra har xil fanlar kirib qolgan. Bu muammoni hozirgi kunda ikki xil usulda yechish mumkin.

Birinchidan – bakalavriat va magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha kompetensiyalar jadvalini shakllantirish, professiogrammalarni tuzish zarur. Bu juda aniq, lekin katta hajmdagi ish hisoblanadi.

Ikkinchidan – o'quv rejalarini xorijiy tahlil qilish zarur. Bunda yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalarini va sillabuslari mazmuniga mo'ljal olinadigan bo'lsa kamroq xatoga yo'l qo'yiladi va bu ishni mutaxassislik kafedralarining mas'ul o'qituvchilarining imkoniyatlari darajasida hal qilish mumkin.

O'quv rejalarini shakllantirib bo'lganimizdan so'ng "tanlov fanlari katalogi"ni tuzib, ularni talabalar tanloviga taqdim qilishimiz zarur. Shu orqali o'quv rejalaridagi fanlar talabalarining qiziqishlariga, kadrlar iste'molchilarining talablariga qay darajada mos kelishini bilib olish mumkin.



Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz OTMlari kredit-modul tizimiga o'tishi bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semestr va fanlar bo'yicha taqsimlab qo'yishning o'zidan iborat emas. Afsuski, hozirda ayrim OTMlar kredit-modul tizimiga o'tishni shunday tushunishmoqda. Agar kredit-modul tizimi to'g'ri va to'liq joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga juda katta ijobiy xususiyatlarni olib kirishini kutish mumkin. Jumladan, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchov birligining olib kirilishiga, OTMlar o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'lishiga, OTMlarda o'qish jarayonining shaffoflashishiga, o'quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga va nihoyat har bir talaba ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Agar mahalliy OTMlar kredit-modul tizimiga o'tsalar-u, yuqoridagi maqsadlarga erisha olmasalar yoki erishishga harakat qilmasalar, unda OTMlarimiz kredit-modul tizimiga tom ma'noda o'tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkinovna, I. I. (2024). Moddalarning elektr o'tkazuvchanligi haqida ayrim muhim tushunchalar. Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 2(4), 264-273.
2. Erkinovna, I. D. (2024). Use of some interactive methods in teaching mathematics. Pedagogical reforms and their solutions, 1(2), 24-27.
3. Xayitova, X. (2021). [x] sonli funksiyaning asosiy xossalari yordamida yechiladigan ayrim masalalar». центр научных публикаций (*buxdu. uz*), 8(8).
4. Ismoilova, D. E. (2021). Ba'zi xususiy hollarda to'rt o'lchamli qo'zg'alishli ikki kanalli molekulyar-rezonans modelining fredgolm determinanti. Scientific progress, 2(3), 69-76.